




**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**QASHQADARYO
VILOYATIDA XIZMATLAR
SOHASINING
RIVOJLANISHI**

2022- yilning yanvar-aprel oylarida



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel

Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari orasida xizmatlar sohasi ustunlik qiladi.

Ilg'or mamlakatlarning zamonaviy rivojlanish darajasi turli xil xizmatlar ishlab chiqish va ularning bozorini jadal rivojlanishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezonidir.

XIZMATLAR

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
- **4499,4**
mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi –
67,1 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari –
111,7 %




**2022- yil
yanvar-aprel**

SOHASI

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –
1317,2 ming so'm

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi –
59,2 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari –
109,3 %




Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4499,4** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **732,1** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	4499,4	111,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	227,1	121,4
Moliyaviy xizmatlar	879,2	131,0
Transport xizmatlari	875,4	113,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	824,0	110,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	133,6	106,0
Savdo xizmatlari	1386,5	106,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	109,8	110,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	160,7	85,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	59,8	101,3
Ijara xizmatlari	106,8	87,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	151,0	104,3
Shaxsiy xizmatlar	151,2	107,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	47,0	101,7
Boshqa xizmatlar	211,3	117,7



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da






Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel

2022- yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi **875,4** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **13,8** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **19,5** % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar-aprel oylarida)



2022- yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **94,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-aprel oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **96,8** % ni tashkil etgan.





Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,8 %** ni tashkil etib, bu **1386,5** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **1178,8** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **31,3 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari






Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel


2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **84,0** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **10,8** % ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**5,2** %) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-aprel oylarida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo ulushi **82,7** % ga yetdi



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2022- yil yanvar-aprel oylarida)

2022- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **879,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **668,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning shu davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **19,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021-yilning yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **17,7** % ni tashkil etgan.

2021- yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **210,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **31,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021-yilning yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **27,1** % ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **86,1 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oyi yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,0 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **8,9 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-aprel oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar




Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **84,3 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,8 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **9,9 %**.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekomunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari






Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel




Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **160,7** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,6 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **85,9 %** ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
yanvar-aprel

2022- y.
yanvar-aprel



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-aprel




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel


2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **24,5** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

**2021- y.
yanvar-
aprel**

**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

**2022- y.
yanvar-
aprel**



2022- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,3** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,0** % ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligi, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

1317,2
ming so'm

190,0
ming so'mga



120,8 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1317,2** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1127,3** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **120,8 %** da qayd etilgan.